- a) avtomobildagi asosiy korpus detallarining tuzilishi va bajaradigan vazifalari;
- b) avtomobildagi asosiy korpus detallari qanday yuklamada ishlashi, taxminan, xizmat muddati.

3.2. Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda qo'yidagi jadvalini to'ldirish kerak.

| Izox Avtomobil markasi | Tsilindr lar bloki | Uzatma lar qutisi ning karteri | Orqa ko'prik karte ri | Tsilindr lar blokining kallagi |
|---------------------------|-----------------------|--------------------------------------|--------------------------------|--------------------------------------|
| Kamaz 5320 | | | | |
| VAZ | | | | |
| Damas | | | | |
| Tiko | | | | |
| Neksiya | | | | |

Nazorat uchun savollar.

Avtotraktor korpus detallarining asosiy bajaradigan vazifasi nimaq

Avtotraktor korpus detallarini umumiy xususiyatlari nimaq

Asosiy korpus detallari qanday materiallardan tayyorlanadiq

Nima uchun korpus detallari quyma usulda olinadiq

Laboratoriya ishi №6 Silindrlar blokini tashxislash.

Ishdan maksad: Silindrlar blokida uchraydigan asosiy nosozliklar bilan tanishish


Umumiy ma'lumotlar

Avtomobil dvigatelining silindrlar bloki-asosiy uzellardan biridir. U murakkab konstruktsiya bo'lib, krivoship-shatunli mexanizm, moy xaydagich, gaz taqsimlagich, tirsakli vallar va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Silindrlar blokiga kallak, ilashma karteri, taglik, taqsimlash tishli g'ildiraklar qopqog'i, suv nasosi kabilar mahkamlanadi.

Silindrlarning joylashuviga qarab bloklar ikki xil bo'ladi, bir qatorli va V-simon. Silindrlar bloki cho'yandan yoki alyuminiy qotishmasidan tayyorlanadi. Ish xajmi kichik dvigatel blokida quruq yarim gilza ko'rinishidagi silindrlar bir qatorda joylashadi. O'rta va katta ish xajmiga ega bo'lgan dvigatellar blokidagi silindrlar V-simon yo'nalishda joylashadi; blokning o'zi cho'yan yoki alyuminiy qotishmasidan quyib tayyorlanadi; silindr vazifasini suv bilan sovutiladigan cho'yan gilzalar bajaradi; klapanlar tepadan pastga ochiladi. Cho'yan bloklarni gaz chiqaruvchi klapanlar uchun o'ta chidamli legirlangan qotishmalardan tayyorlangan, almashtiriluvchi o'rindiqlar qo'yiladi. Silindrlar blokiga kesib ishlov berish texnologik jarayonlarining xususiyati shundaki, bitta xolatda ikki tomondan ishlanayotgan blok o'lchamlari yuqori aniqlikda bajarilishi va yuzalar bilan o'rnatuv teshiklari bir-biriga nisbatan aniq joylashishi zarur. Masalan, silindr ko'zgusi va tirsakli valning o'zak podshipniklari vkladishi uyasining o'lchamlari va shaklining aniqligi, kallak qo'yiladigan yuzaning o'zak podshipniklar o'qiga nisbatan joylashuvidagi aniqlik.

Silindrlar bloki murakkab shaklli bo'lganidan, qo'yilgan zagotovka sovush paytida deformatsiyalanadi. Shuning uchun quymaning nuqsonlarini aniqlash va deformatsiyaning kamaytirish maqsadida toza (nozik) ishlovning dastlabki texnologik amallarida eng katta o'lchamlarga ega bo'lgan yuzalardan (uzunlik va yuza) ishlov qatlami (qo'yim) olinadi. Bunday uzunlik va yuza bir qatorli blokda yuqorigi va pastki, oldingi va orqa yuzalar hisoblanadi.

Patki yuza taglik (poddon) bilan, yuqori yuza-blok kallagi bilan tutashadi. Ularga baraban-frezerli yoki sidirish stanoklarida ishlov beriladi. Oldingi yuza taqsimlash tishli g'ildiraklar qopqog'i bilan, orqa yuza-ilashma karteri bilan tutashadi. Ular uzunasiga frezalovchi yoki



baraban-frezali stanokda ishlanadi. Yuqorigi va pastki yuzalarga ishlov berishda silindrlar bloki yordamchi texnologik bazasi bilan o'rnatiladi. Bunday baza sifatida blokning yon tomonida, pastroqda, ikki tomonda ikkitadan joylashgan (1 va 2) to'rtta quyma bo'rtma xizmat qiladi. Dastlab bo'rtmalar ixtisoslashtirilgan ko'p shpindelli frezlash stanogida frezalanadi. Bunda blokni o'zak podshipnik vkladishlari qo'yiladigan ikkita chekka uyasi bilan asoslab, prujinalashtirilgan prizma shaklli ikkita o'rnatuv suxarlar bilan tirab qo'yiladi.

Blokning tirsakli val bo'ylab mo'ljalini olish uchun uchi qirqilgan konus vtulka yordamida oxirgi silindrning muayyan holati turg'unlashtiriladi. Shu tiqin va yana, yassi qisqich yordamida blok pastki yuzasi bilan moslama plitasiga bosib qo'yiladi.

Nazorat-sermehnat jarayon. Uni avtomatlashtirish ba'zi hollarda qiyin. Amallar orasidagi nazoratdan tashqari ishlov tugagach, yakuniy nazorat ham o'tkaziladi. Bloklarni nazorat qilish-tashqi ko'rinishini ko'zdan kechirish bilan boshlanadi va o'lchamlarning aniqligi, yuzalarning bir-biriga nisbatan joylashuvi, teshiklarning o'qdoshligi kabi ko'rsatkichlar turli asboblarda yordamida tekshiriladi. O'zak podshipniklari va taqsimlash valining podshipniklari o'tiradigan teshiklar pnevmoelektrik datchikli qurilmalar yordamida tekshiriladi. Bunday qurilmalar teshikni 3ta ko'rsatkich bo'yicha tekshiradi: diametrning eng katta va eng kichik og'ishi,

teshikning eng kichik diametrdan og'ishi berilgan chegarada bo'lgan holatdagi nisbiy brak. Agar teshikning diametri berilgan chegaradan chiqib ketsa, shunga muvofiq chiroqli signal beriladi. Chiroq takror yonsa, avtomat qator to'xtab qoladi.

Silindr gilzasi o'rnashadigan teshiklarni va gilza bo'rtmasi bilan o'tiradigan ariqcha chuqurligini tekshirishda maxsus qurilmadan foydalaniladi. qurilmaning elektr yordamida ulanuvchi datchigi bo'lib, yo'l-chiroq (svetofor) kabi ishlaydi. Diametrning noaniqligi va kalibr-tiqinlar tekshirilayotgan teshikka kirmasligi haqidagi tovushlar mikroulagich-uzgichlar orqali beriladi; qatorni to'xtatish haqida tovush berilganda o'lchov qurilmasida yo'lchiroq yonadi. Diametri teshikning nominal diametridan 0,1 mm ga kam bo'lgan nazorat tiqinida o'lchov ulagichlarini joylashtiradigan ariqcha bor. Ulagichlar richagli tizim orqali datchiklar bilan ulangan.

O'zak podshipniklari o'tiradigan teshik o'qining silindr o'qiga nisbatan perpendikulyarligi jo'vali indikator-moslama bilan quyidagi tartibda tekshiriladi. Eng chekkadagi o'zak tayanch teshiklariga konus vtulka kiritib, uning ichiga jo'va kiritiladi. Jo'vaga kronshteynli prizma o'rnatilgan, uning ichiga indikator joylangan. Kronshteyndagi tayanch va silindr devoriga tegib turgan ulagich yordamida indikator ko'rsatadigan ma'lumot qayd etiladi. Keyin prizmani kronshteyn bilan birga 180⁰ ga aylantirib, yana indikator ma'lumoti qayd etiladi. Qayd etilgan ma'lumotlarning farqi xatolikning ikkilangan qiymatini bildiradi. Bu xatolik o'zak podshipniklar teshigining silindr o'qiga nisbatan joylashuv xatosini bildiradi.

Jo'vali indikator moslamadan boshqa tekshiruvlarda ham foydalanish mumkin. Masalan, turtkich o'qining taqsimlash val podshipniklarining o'qiga nisbatan joylashuvi; taqsimlash val o'qidan moy nasosi qotiriladigan yuzagacha bo'lgan masofa kiradi.

Tirsakli va taqsimlash vallari ostidagi teshiklar o'qlarining parallelligini indikatorli moslama yordamida tekshirganda har bir o'q opravkadagi teshiklar seriyaga kiritiladi. Ikkala opravka tirqishsiz o'rnatiladi, opravkalar o'qi orasidagi masofa indikator bilan o'lchanadi. Indikator o'lchov richagining burilish burchaklarini aks ettiradi. Richag opravkaning tashkil etuvchisiga tegib turadi.

Rezba ochiladigan teshiklarning mavjudligi va chuqurligi avtomat qatordagi qurilmalar yordamida tekshiriladi. Ular ichi kovak silindrli paypaslagichlar o'rnatilgan ko'p shpindelli kallakdan iborat. Teshiklarda qolgan qirindilar siqilgan xavo bilan haydab tozalanadi. Bunday qurilmaning tashqi ko'rinishi ko'p shpindelli parmalash kallagini eslatadi, faqat bu yerda parma o'rniga paypaslagich o'rnatilgan.

Hamma bloklar maxsus qurilmada o'tadi. Shundan so'ng ular dvigatelni yig'ish konveyeriga uzatiladi.

Ishning mazmuni

Bloklarni nazorat qilish-tashqi ko'rinishini ko'zdan kechirish

o'lchamlarning aniqligi, yuzalarning bir-biriga nisbatan joylashuvi, teshiklarning o'qdoshligi kabi ko'rsatkichlar turli asboblarda yordamida tekshirish. O'zak podshipniklari va taqsimlash valining podshipniklari o'tiradigan teshiklarni pnevmoelektrik datchikli qurilmalar yordamida tekshirish. Bunday qurilmalar teshikni 3ta ko'rsatkich bo'yicha tekshirish: diametrning eng katta va eng kichik og'ishi, teshikning eng kichik diametrdan og'ishi berilgan chegarada bo'lgan holatdagi nisbiy brak. Agar teshikning diametri berilgan chegaradan chiqib ketsa, shunga muvofiq chiroqli signal beriladi. Chiroq takror yonsa, avtomat qator to'xtab qoladi.

Nazorat savollari

- 1.Silindrlar bloki kandy vazifani bajaradi
- 2.Silindrlar bloki kandy tayyorlanadi
3. Silindrlar blokida kandy nosozliklar uchraydi
4. Silindrlar blokida nosozliklar kandy aniklanadi

LABORATORIYA ISHI № 7

Avtomobilning «dumaloq sterjenlar» turidagi detallarini tayyorlash uchun materiallar tanlash.

Ishdan maqsad.

Avtomobilda burovchi momentni uzatib beruvchi asosiy detallar: tirsakli val, taqsimlovchi val, kardan vali, uzatmalar qutisining birlamchi va ikkilamchi vali va orqa ko'priknining yarim o'qlari uchun materiallar tanlab olinishi.

Umumiy ma'lumotlar

Dumaloq sterjen ko'rinishidagi detallar konstruktiv jihatdan bir-biriga yaqinligidan kelib chiqib, ularning zagotovkasiga ishlov berishning texnologik jarayoni sxemasini quyidagicha yozish mumkin (ichi kovak vallar va ayrim mayda detallar bundan mustasno): a) chiviqli yoki quvurdan qizdirilgan qolda shtamplab yoki quyish yo'li bilan dastlabki zagotovka tayyorlash; b) kesib ishlov berishda zagotovkani markaziy teshiklari yoki bo'yinlari yuzasi yordamida asoslash; v) zagotovkani aylantirish bilan birga tokarlik ishlov berish; g) uzun vallarga ishlov berishda bo'yinlarni lyunetga moslab dastlabki yo'nish yoki silliqlash; d) shakldor yuzalarga ishlov berish; e) ikkinchi darajali yuzalarga ishlov berish; j) zarurat bo'lsa termik ishlov berish; z) termik ishlov berishdan keyingi silliqlash; i) muvozanatlash; k) maromiga etkazib ishlash.

Sterjen ko'rinishidagi muayyan detallarni tayyorlashda bu sxemaga ayrim qo'shimchalar kiritiladi. Masalan, tirsakli va kulachokli valning zagotovkasidagi shatun bo'yinlari va kulachoklarga ishlov berilayotganda aylanish o'qini surish kerak, ichi kovak vallarni yasash texnologik jarayonlariga esa, ichki teshikka ishlov berish amallari qo'shiladi.

Poqonali vallarni, uzatmalar qutisining ikkilamchi vali, tirsakli va kulachokli valni yasash texnologik jarayonlarining xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

2. Tirsakli va poqonali vallarning konstruktiv va texnologik xususiyatlari.


Porshenli ichki yonuv dvigatellarining eng muqim detallaridan biri tirsakli val qisoblanadi.

Silindrdagi qavo-benzin aralashmasi yongach «shatun-porshen» seriyadagi kuch tirsakli valga tushadi, u-kuchni transmissiyaga uzatadi. Shu jarayonda tirsakli valga katta dinamik kuch to'qri keladi. Tirsakli valdagi o'zak bo'yinlarning o'lchamlari va miqdorri dvigatel turiga, silindrlar soni va joylashuviga boqliq.

Ikki tayanchli tirsakli vallar odatda, ishchi qajmi kichik dvigatellarda 3-5 tayanchlari-o'rta ishchi qajmli dvigatellarda, 7 va undan ko'p tayanchlilari-katta quvvatli dvigatellarda qo'llanadi. Tirsakli valning ayrim konstruksiyalarida posangilar qo'yiladi. Tirsakli valning shatun bo'yinlari 120o, 180o burchak ostida (bir tekisda) va kamdan-kam 90o burchak ostida joylashadi.

3. Tirsakli valni tayyorlash.

Kichik xajmli dvigatelning tirsakli vali to'liq tayanchli qisoblanib, 5ta o'zak va 4ta shatun bo'yni bor. O'zak bo'yni diametrining nominal qiymati 51 mm, shatun bo'yinniki 48 mm. Tirsakli valning va o'zak bo'yinlarga tutashgan jaqlarida posangilar bor. Shatunlar 1800 ostida joylashgan valda qiya teshiklar ochilgan; ularning ichidan moy oqib shatun bo'yinlarga keladi. Val tayanchli bo'lgani sababli o'zak bo'yinlardan shatun bo'yinlarga moy kelishi maromida kechadi, chala tayanchli vallardagi kabi nomaqbul moy kelishi qollari bo'lmaydi. qiya teshiklarning keraksiz ochiq joylariga tiqinlar presslab (4ta joyda) va kernlab (nuqtalarni pachoqlash, 3ta joyda) tashlanadi. Ta'mirlash paytida cho'kindilardan tozalash maqsadida tiqinlar olinadi. Tirsakli valning oldingi uchida segmentli shponka bor. Unga gaz taqsimlash mexanizmining etakchi zanjirli yuritgichiga tegishli yulduzsimon tishli qildirak va generatorning shkivi o'rnatiladi. ular valning eng uchida joylashgan xrapovik yordamida qotiriladi. Tirsakli valning orqa tomonida flanes bor.



Unga o'z-o'zidan maqamlanib qoladigan 6 ta bolt va qistirma yordamida cho'yandan yasalgan zalvor qildirak (maxovik) tutashtiriladi. Eng orqadagi ko'ndalang yuza chuqurchasida zo'ldirli podshipnik uchun uya ochilgan. Bu podshipnikning ichki xalqasiga uzatmalar qutisining etakchi vali bir uchi bilan kirib turadi.

Zagotovka tayyorlash. Tirsakli val tarkibida sharsimon grafitlar mavjud bo'lgan yuqori mustaqkam, maxsus cho'yandan quyiladi. Uning xususiyatlari tarkibida sharsimon erkin grafitlar mavjud bo'lgan yuqori kremniyli po'lat xususiyatlariga yaqin. Bunday cho'yan-suyuq qolida oquvchan, quyish qarorati po'latnikidan past. Undan tayyorlangan zagotovkalarining tarkibi zich va metall kesuvchi stanoklarda yaxshi ishlanadi, tirsakli vallar esa yuqori ish ko'rsatkichlariga ega bo'ladi.

Tirsakli valning 12,8 kg li zagotovkasini mashina yordamida qoliplangan qum qoliplarga quyib, qosil qilinadi. O'rtadagi o'zak va shatun bo'yinlarida ishlov uchun qoldiriladigan qatlam 2-3 mm, qolgan bo'yinlarda - 1,5-2,0 mm.

Olingan zagotovkalar quyidagi texnik shartlarga javob berishi kerak: normalashdan keyin zagotovka qattiqligi NV235-265; ajratish chiziqidagi siljish 0,5mm gacha, qudur 1,0 mm gacha (posangi mintaqasi bundan mustasno); ishlov qatlami uchun joizlik (1,0((mm(o'lchovlar aniqligi (joizlikdan tashqari) (1,0((mm; zagotovka chizmasida ko'rsatilmagan o'lchamlar tayyor detal chizmasidan olinadi.

Engil avtomobilning tirsakli vali zagotovka olish texnologiyasi yo'nalishi sxema tarzida ko'rsatilgan.

Tirsakli val zagotovkalari yakuniy nazoratdan to'liq o'tgach, mexanika sexiga tashib ketiladi.

Kesib ishlashning texnik shartlari. Tirsakli valni kesib ishlashda asosiy yuzalarning o'lchamlari, ularning o'zaro joylashuvi yuqori aniqlik bilan ta'minlanishi, notekisliklarning balandligi kam bo'lishi kerak. Bu talablar quyida beriladi:

Diametrining aniqligi, kvalitet:

O'zak va shatun bo'yinlarda.....5

Etakchi yulduzcha-qildirak va shkiv chetidagi bo'yinda.....6

Moytutqich flanesi (panjasi)da.....6

Bo'yinlarning ovalligi, konusligi va botiqligi, mm.....0,004

Shatun va eng chekka o'zak bo'yinlar o'qlarining
parallellikdan oqishi, mm0,03

zalvor qildirak o'rnatiladigan flanes ko'ndalang
yuzidagi tekislikning oqishi, mm0,05

zalvor qildirak radiusi uzunligida urish, mm dan kam... 0,03

tirsakli valning muvozanatsizligi, GSM.....12

yuza qadir-budurligi ko'rsatkichi, Ra, mkm:

o'zak va shatun bo'yinlarida.....0.32x0.16

yulduzcha-tishli qildirak va shkiv osti bo'yinda.....2.0-1.2

| | |
|---|---|
| Amallar | Uskuna |
| Sterjen qoliplash | sterjen yasaydigan ikki vaziyatli mashina |
| Sterjenni yakuniy ishlash | Stol |
| Ko'z bilan nazorat qilish | |
| qoliplash, sterjenni qolipga o'rnatish va qo'yish. qolipni urib chiqarish | Avtomat qator |
| quymadan sterjenlarni chiqarish | O'sha |
| quyish ariqchasini kesib tashlash | O'sha |
| Birinchi tozalash | Pitra bilan tozalovchi uskuna |
| quyish ariqchasi o'rnini jilvirlash | Ikki toshli shilib silliqlovchi uskuna |
| Ajratish chizig'ini jilvirlash | Shilib silliqlovchi uskuna |
| Termik ishlov (normallash) | Uzluksiz ishlovchi pech |
| Ikkinchi tozalash | Pitralli uskuna |
| qattiqlik nazorat qilinadigan joylarni silliqlash | Shilib silliqlovchi uskuna |
| кaттикликни нaзopат қилиш | Brinell asbobi |
| Grafitning sferalanish darajasini nazorat qilish | Maxsus asbob |
| Magnitoskopik nazorat | Magnitoskop |
| Ko'z bilan yakuniy nazorat (100%) | Stol |

Bulardan tashqari moy tutgich ostidagi yuzada kesuvchi asbob izlari qolmasligi kerak. Cho'yan tirsakli val zagotovkalariga kesib ishlov berish bo'yicha kompleks texnologik jarayon avtomatlashtirilgan uchastkalarda bajariladi. Ishlov berish texnologik bazani tayyorlashdan boshlanadi. Ko'ndalang yuzalarni qirqish, ikki tomondan markaz ochish sakkizta texnologik bo'rtmani frezalash 13 vaziyatli avtomat qatorda bajariladi. qator bir-biri bilan qat'iy transport vositasida ulangan 3ta stanokdan iborat. qatorda 17ta zagotovka uchun zaqira joyi va avtomat tarzda nazorat ko'ndalang (3ta vaziyat). qatorning texnik ko'rsatkichlari quyidagicha:

Jadval0

| | |
|---|----------|
| Soat ichidagi unumdorlik, dona | 62 |
| Stanoklar soni | 3 |
| Kuch kallaklarining soni | 5 |
| Shpindellar soni | 9 |
| Vaziyatlar soni | 13 |
| Ishchi vaziyatlar soni | 3 |
| Nazorat vaziyatlar soni | 3 |
| Elektr dvigatellari soni | 18 |
| Elektr dvigatellarining umumiy quvvati, kVt | 685 |
| qator o'lchamlari, mm | 11,5-3,5 |
| Massa, T | 18,6 |

Zagotovkalar ishlovga xar bir qator boshidagi yuklashdan boshlanadi. Zagotovkalar moslamaning o'z-o'zidan markazlashadigan prizmalarida o'zak bo'yni va moytutgich ostidagi yuzasi bilan turadi. Uzunasiga yo'nalishda yuzaga mo'ljallab qotiriladi. Chizmada aynan shu yuzadan o'zak va shatun bo'yinlarigacha bo'lgan o'lchamlar ko'rsatiladi.

Vallarni muvozanatlashtirish. Nomuvozanatlik posangilardan ortiqcha metallni o'yib tashlash bilan yo'qotiladi. Shundan keyingi nazoratni disbalans 12 gsm dan ortiq bo'lsa, val avtomat qatordan chetda qayta muvozanatlanadi, nomuvozanatlikni yo'qotish uchun posangilar

jilvir doira bilan tozalanadi. Tirsakli vallarni muvozanatlashtiradigan avtomat qator xomaki va uzil-kesil muvozanatlaydigan qurilma, nazorat qurilmasi muvozanatlangan vallarni saralaydigan mexanizm, vallarni muvozanatlashga olib keladigan va avtomat qatordan oladigan zanjirli ikkita transport qurilmasidan iborat. Boshqaruv po'latdan amalga oshiriladi.

Tirsakli vallarni muvozanatlash uchun qatorni yuklash, disbalansning boshlanqich qiymatini nazorat qilish va ikki yuzani o'yib, uni yo'qotish, qoldiq disbalansni nazorat qilish, tirsakli vallarni qatordan tushirish ishlari avtomat tarzda bajariladi.

Tirsakli vallarni muvozanatlaydigan avtomat qatorning texnik ko'rsatkichlari quyidagicha:

11-Jadval

| | |
|--------------------------------------|------|
| Bir soatlik unumdorlik, dona | 103 |
| Detal massasi, kg | 10 |
| Disbalans burchagi, ($^{\circ}$) | 10 |
| Valning aylanish chastotasi, ayl/min | 673 |
| Parma diametri, mm | 11 |
| Parmalash radiusi, mm | 60 |
| O'qning eng katta chuqurligi, mm | 20,5 |
| Disbalans miqdori, ГСМ: | |
| Bartaraf etiladigan eng kattasi | 348 |
| Berilgani | 12 |
| Uskunaning sezgirligi, GSM: | |
| o'lchovda | 1,9 |
| Nazoratda | 0,34 |
| Suv sarfi, m ³ /c | 5 |
| Elektr tarmoq kuchlanishi, B | 380 |
| Tok chastotasi, Gts | 50 |
| Iste'moldagi umumiy quvvat, kvT | 525 |

4. Kulachokli vallarni tayyorlash xususiyatlari.

Kulachokli vallar mashinasozlikda, masalan, taqsimlash mexanizmlarida va boshqarish jarayonlarida keng qo'llaniladi. Ichki yonuv dvigatelining taqsimlash vali klapanlarning turtkichini, klapanlarni, moy qaydagichni, yoqilqi qaydagichni, o't oldirishni taqsimlagichni va yonilqi nasosini qarakatga keltiradi. Ushbu vazifalarga mos ravishda taqsimlash valining konstruksiyasida murakkab shaklli kulachoklar, tishli gardish, ekstsentrik, kichik diametrli tayanch bo'yinlar ko'zda tutilgan. Bularning qammasi bir o'qqa joylashtirilganda valning uzunligi kattalashib ketadi. Avtomobil va traktorlardagi taqsimlash vali uncha biki detal qisoblanmaydi, uzunligining diametrga nisbati 15-35 oraliqda.

1. Taqsimlash vallarini tayyorlashdagi aniqlik va sifat quyidagi ko'rsatkichlar bilan baqolanadi:

2. Tayanch bo'yinlarning aniqlik ishlovdan so'ng 6-kvalitet, qadir-budurliqi $R_a=0,63\div 0,32$ mkm, ovalligi va konusligi 0,01 mm, nisbiy tepishi (bienie) 0,015-0,02 mm dan oshmasligi kerak.

3. Bo'yin ko'ndalang yuzasining bo'yin yasovchisiga (tsilindrik sirtiga) nisbatan qiyaligi 0,02-0,03 mm gacha, qadir-budurliqi $R_a=1,25\div 0,80$ mkm.

4. Kulachoklarning ishchi yuzasining qadir-budurliqi $R_a=0,63\div 0,32$ mkm gacha.

5. Kulachoklar simmetriya o'qining taqsimlash valdagi tishli qildirak ostidagi shponka ariqchalariga nisbatan oqishi $\pm(30\div 1^{0}30)$,

6. Moy qaydagich va chaqmoq taqsimlagich qildiragidagi gardish tishlarining qadir-budurliqi $R_a=1,25\div 0,8$ mkm.

Avtomobil va traktorlarning taqsimlash vallari uzunligiga qarab, uch seriyaga bo'linadi: 500 mm gacha, 500-1000 mm oraliqda, 1000-1500 mm oraliqda. Ular uglerodli va legirlangan po'latdan, legirlangan cho'yandan yasaladi. Zagotovkalar qizdirib shtamplash, tuproq qoliplarga

va qobiqli qoliplarga quyish usullari bilan tayyorlanadi. Shtamplab tayyorlangan vallar yumshatiladi yoki normallanadi, shunda ichki kuchlanishlar yo'qoladi. Po'lat vallarga termik ishlov berilib (toblash va bo'shatish), qattiqligi HRC 52-58 ga, chuqurligi 2-5 mm ga etkaziladi. Ishlov chuqurligi kulachoklarda 10 mm gacha boradi. Cho'yandan quyib tayyorlangan taqsimlash vallariga mexanik ishlov jarayonida termik ishlov berilib, qattiqlik HRC 52-58 gacha etkaziladi.

Cho'yanni qobiqli qoliplarga quyib taqsimlash val yasash-mashinasozlikdagi istiqbolli yo'nalishdir. 12-jadvalda shu usulni tavsiflovchi ma'lumotlar keltirilgan.

quyma taqsimlash valining massasi bolqalanganiga qaraganda 10-15% kam. Odatda, taqsimlash vallarining ko'ndalang yuzalariga, markaziy teshiklariga tayanch bo'yin vaflanega, undagi teshiklarga va shponka ariqchalariga, kulachoklariga ishlov beriladi, kulachoklar bilan bo'yinlar pardozlanadi (yakuniy ishlov), ishlolv sifati nazorat qilinadi.

-Jadval1

| Ko'rsatkichlar | O'lchov birligi | Zagotovka | |
|--|-----------------|--------------|---------|
| | | shtamplangan | quyma |
| Valning qiyshiqligi | MM | 1.5-2.5 | 0.6-1.0 |
| Tayanch bo'yinlarining ovalligi | MM | 1.0-1.5 | 0.4-0.6 |
| Tashqi nuqsonlarning ruxsat etilgan chuqurligi | MM | 1.0-1.5 | 0.8-1.0 |
| Ishlov qatlami (qo'yim) | MM | 3-5 | 1.0-2.5 |
| Qiyaliklar | gradus | 7 | 2 |
| O'lchamlar aniqligi | kvalitet | 15-16 | 12 |

Ishning mazmuni.

Avtomobildagi burovchi momentni uzatib beruvchi asosiy detallar bajaradigan vazifalar ularning konstruktiv xususiyatlari va tuzilishi bilan tanishish.

Avtomobildagi burovchi momentni uzatib beruvchi detallar uzatib beradigan eng katta momentlar ularning ishlash sharoitlari bilan tanishish.

Avtomobildagi burovchi momentni uzatib beruvchi asosiy detallarini tayyorlash uchun ularning ishlash sharoitiga mos keladigan va mustaxkamligi va ko'pga chidamliligini ta'minlay oladigan materiallarni tanlash.

Ishni bajarish va xisobot tuzish tartibi.

Talaba ishni bajarish jarayonida qo'yidagilar bilan tanishi kerak:

a) avtomobildagi burovchi momentni uzatib beruvchi detallarining shakli tuzilishi va bajaradigan vazifalari;

b) avtomobildagi burovchi momentni uzatib beruvchi asosiy detallarining maksimal burovchi momenti, maksimal yuklamasi va ularning ko'pga chidamliligi va ishonchliligi.

3.2. Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda qo'yidagi jadvalini to'ldirish kerak.

| Avtomobil markasi | Tirsak li val | Taq sim lash vali | Uzatma lar qutisi ning birlamchi vali | Uzatma lar qutisi ning ikkilamchi vali | Kar dan vali | Yarim uqlar |
|-------------------|---------------|-------------------|---------------------------------------|--|--------------|-------------|
| ЗИЛ-130 | | | | | | |
| Камаз 5320 | | | | | | |
| ВАЗ | | | | | | |
| Дамас | | | | | | |
| Тико | | | | | | |
| Нексия | | | | | | |

Nazorat uchun savollar.

Tirsakli vallar bajaradigan asosiy vazifa nimaq

Taqsimot vallari nima uchun xizmat qiladiq

qaysi avtomobilning tirsakli vallari qo'yma usulida olinadi, qaysilarida shtamplash usulida olinadiq

Tirsakli vallar qanday materiallardan tayyorlanadiq

Taqsimlash vallari qanday materialdan tayyorlanadiq

Uzatmalar qutisining birlamchi va ikkilamchi vallari qanday materiallardan tayyorlanadiq

Kardan vallarining vazifasi nimaq

Yarim o'qlar qanday materiallardan tayyorlanadiq

LABORATORIYA ISHI № 8

Avtomobilning dumaloq bo'lmagan sterjenlar tipidagi asosiy detallarini tayyorlash uchun materiallar tanlash.

Ishdan maqsad.

Avtomobildagi dumaloq bo'lmagan sterjenlar tipidagi asosiy detallar oldingi balka, ramalarning lonjeroni, ko'ndalang balkalari, shatunlar, surish va chiqarish kollektorlari, tormoz kolodkalarining silindrlarini tayyorlash uchun ularga mos keladigan materiallarni tanlab olib bilishni o'rganish.


Umumiy ma'lumotlar

Bu turdagi ko'ndalang kesimi doira bo'lmagan uzunligi ko'ndalang kesimi o'lchamidan 2 marta va undan ko'p marotaba katta bo'lgan to'qri va egri tayoqlar kiradi. Masalan, avtomobilning oldingi balkasi, dvigatelning shatuni, uzatmalar qutisining ayrisi, shayin (koromislo), aylantiruvchi kulachok va q.k.

Richaglarning konstruktiv tuzilishi turli-tuman, tayyorlashning texnologik jarayonlari qam o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shunga qaramay, richaglarning ishlov beriladigan yuzasi- bir uchidagi tekis joyi va undagi teshigidir. Ba'zi qollarda, masalan zagotovkaning o'lchami talabga javob bermay qolsa, richag kesib ishlanishi mumkin. Bir-biriga nisbatan katta aniqlik bilan, parallel teshikli richaglarni yasash (masalan, shatun) ko'p meqnat talab qiladi.

Richag zagotovkalariga ishlov berishda xomaki texnologik baza (asos) bo'lib, asosiy teshikning ko'ndalang yuzasi va bu teshik bo'rtmasidagi tashqi chiziqlar xizmat qiladi. Keyingi ishlovlarda teshikning o'zi va ko'ndalang yuza doimiy texnologik asos bo'lib qoladi. Kesib ishlash paytida zagotovka qo'zqalmaydi.

Richaglarning tipik ko'rinishlari sifatida yuk avtomobilining oldingi ko'prigi-balkasini va aylantiruvchi kulakni ko'rsatish mumkin.



-расм. 1J154 avtomat qatorning sxemasi

S1 stanogining peshtoqiga o'rnatilgan ikkita babkaga frezalar maqamlanadi. Ular yordamida balkaning reszor tekisliklari frezalanadi. Zagotovka moslamaga, moslama-qo'zqaluvchi stolga o'rnatiladi. Stol esa, qatorga ko'ndalang yo'nalishda suriladi. S2 stanogida reszor tekisligidagi 8 ta, ikki tomoni ochiq teshik (6) va 2 ta bir tomoni berk teshik (7) ochiladi. Bunda ikkala tekislikni qamrab oladigan shpindelli kallak bilan parmalanadi. Bulardan tashqari S2 dagi yonma-yon joylashgan ikkita gorizontal kallak yordamida shkvoren shtiftining ikkita teshigi (2) va teleskopik amortizator barmoqchasining ikkita teshigi (3) ochiladi. S3 stanogida ikkala bo'rtma (1)ning ko'ndalang yuzasi frezalanadi. S3 stanogining tuzilishi S1 ga o'xshaydi. S4 stanogida reszor tekisligidagi teshiklar sekovka qilinadi, shkvoren shtiftining teshiklari (2 – asos teshiklari) vertikal kallak yordamida, amortizator barmoqchasining teshik(3)lari ikkita gorizontal kallak yordamida razvyortka qilinadi. S5 stanogida (2) va (3) teshiklar zenkerlanadi, S6 da – ular razvyortka qilinadi.

Shu bilan birinchi uchastkadagi ishlovlar tugaydi. Zagotovkalar aylantiruvchi barabanga uzatiladi. Zagotovka bo'ylama o'qi atrofida 1800 ga aylantiriladi va ko'ndalang transportyorga tushadi. Undan aylanma stol (PS) ga uzatiladi va vertikal o'q atrofida 900 ga buriladi.

qatorning ikkinchi uchastkasida (S7, S8, S9)gi ishlov shkvoren o'rnini (5) parmalash bilan (S7 stanogida) boshlanadi. Bu teshik S8 da zenkerlanadi, S9 da razvyortka qilinadi. Zagotovka ishlovdan chiqqan reszor tekisligi va ikkita asos teshigi bilan o'rnatiladi. Bu stanoklarning qar bir vaziyatiga bir vaqtning o'zida ikkitadan balka siqdirish mumkin.

Uchinchi uchastkada (S10 va S11) shkvoren teshiklarini puflab, tekshirib bo'lgach, sekovka qilinadi (S10)va bo'rtmaning ko'ndalang yuzalari nozik frezalanadi (S11). S11 stanogi staninasining vertikal qirralarida gorizontal chiziqqa nisbatan 8o burchak ostida yo'naltiruvchi plitalar o'rnatilgan. Bu plitalar ustida frezalovchi kallaklar surilib yuradi. Kallaklarga gardishga birlashtirilgan ko'ndalang yuza frezalari maqamlanadi.

qatorning 2 va 3-uchastkalarida balkalar transportyorda, xrapovikli ilmoqlar yordamida tashiladi.

qatordagi ishlovlar moylovchi-sovituvchi suyuqlik ostida bajariladi. Suyuqlikni markazdan qochirma qaydagich (nasos)soatiga 30 m3 qajmda etkazib beradi. S7 stanogida shkvoren teshigi ochilayotganda qirindilarni tezroq yo'qotish va asbobni yaxshi sovitish maqsadida suyuqlik qo'shimcha qaydagich (tishli qildirakdan tashkil topgan) yordamida asbobga katta bosim bilan beriladi.

qatorda yiqilgan qirindilar maxsus transportyor yordamida chiqarib tashlanadi. Birinchi uchastka bo'ylab bir transportyor, ikkinchi va uchinchi uchastka bo'ylab-ikkita parallel transportyor qo'yilgan. Bulardan tashqari S1 va S3 stanoklarda shnekli transportyor qo'yilgan. qo'shimcha bu transportyor qirindilarning asosiy transportyorga chiqarib beradi.

qatorda 68 ta shpindelga ega bo'lgan 26 ta kuch uzeli ishlaydi; qatorning nominal unumdorligi soatiga 50 ta detal.

Ishning mazmuni.

Talabalarni avtomobillardagi dumaloq bo'lmagan sterjen tipidagi asosiy detallar bajaradigan funktsiyalar, ularning vazifalari, konstruktiv xususiyatlari va tuzilishi bilan tanishtirish.

Avtomobildagi dumaloq bo'lmagan sterjen tipidagi asosiy detallarga tushadigan yuklamalar, zo'riqishlar va ularning ishlash sharoiti bilan tanishtirish.

Avtomobillarning dumaloq bo'lmagan sterjen tipidagi asosiy detallari uchun ishlatiladigan materiallar chuyan va po'latning mexanik, fizik, kimyoviy xususiyatlari bilan tanishtirish.

Avtomobilning dumaloq bo'lmagan sterjen asosiy detallarini tayyorlash uchun ularning ko'pga chidamliligi va ishonchligini ta'minlay oladigan material tanlab olish uchun ko'nikma xosil qilish.

Ishni bajarish va xisobot tuzish tartibi.

Talaba qo'yidagi misollar bilan tanishi kerak:

- a) avtomobildagi dumaloq bo'lmagan sterjenlar tipidagi detallarning shakli, tuzilishi va bajaradigan funktsiyalarini;
- b) avtomobildagi dumaloq bo'lmagan sterjenlar tipidagi detallarning eng katta qabul qiladigan yuklamasi, taxminan xizmat qilish muddatini;

3.2. Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda qo'yidagi jadvalini to'ldirish kerak.

| Avtomobil markasi | Oldingi balka | Ramaning ko'ndalang balkasi va lonjero ni | Surish va chiqarish kollektorlari | Shatun | Shayin (koro mislo) |
|--------------------------|----------------------|--|--|---------------|----------------------------|
| ZIL-130 | | | | | |
| Gaz-53A | | | | | |
| MAZ-5379 | | | | | |
| Kamaz5320 | | | | | |
| GAZ-24 | | | | | |
| VAZ | | | | | |
| Damas | | | | | |
| Tiko | | | | | |
| Neksiya | | | | | |

Nazorat uchun savollar.

- Dumaloq bo'lmagan sterjenlar tipidagi detallarning asosiy bajaradigan vazifasi nimaq
- Dumaloq bo'lmagan sterjenlar tipidagi detallarning umumiy xususiyati nimaq
- Dumaloq bo'lmagan sterjenlar tipidagi detallar qanday materiallardan tayyorlanadiq
- Dumaloq bo'lmagan sterjenlar tipidagi detallar zagotovkasi qanday usulda olinadiq

Labotatoriya ishi №9 **Dvigatelni umumiy yigish**

1.Ishning maksadi: Dvigatelni yigish texnologik jarayoni va uni tashkil etishni urganish

2.Ishning mazmuni:

2.1 Dvigatel va uning uzellarini yigishning tashkiliy formasi

2.2.dvigatelni yigish texnologik jarayonini urganish

2.3.dvigatelni yigishda ishlatiladigan texnologik jixozlar ishlash printsiplarini urganish

3.Ishni utkazish tartibi

3.1.Dvigatelni umumiy yigish ketma- ketligini urganish

3.2.Dvigatelni yigishda ishlatiladigan jixozlar va moslamalarni urganish

3. Umumiy ma'lumotlar.

Ta'mirlashda dvigatelni yigish- uzellarni yigish va ularni umumiy yigishga bulinadi.Umumiy yigish liniyasidan tashkaridagi postlarda kuyidagi asosiy uzellar yigiladi:porshen bilan shatun, silindrlar kallagi,tirsakli val Bilan maxovik,nasos forsunka,yukori bosimli yonilgi nasosi yo bilan rostlagich, yonilgi xaydash nasosi,rul mexanizmi gidrokuchaytirgichning nasosi,moy nasosi, moy filtri,tseentrifuga, suv nasosi.

Yigish ishlari sifatli bulishi uchun kuyidagilar tavsiya etiladi:

- yigishdan oldin barcha detallarni siqilgan xavo bilan puflash, ishkalanuvchi yuzalarni yaxshilab artish,yuvish va moylash;


-rezbali birikmalarni sirib tortishni (tsilindrlar kallagini,shatun kopkoklarini,uzak podshipniklari kopkoklarini va boshkalarni maxkamlashda) kerakli laxza Bilan belgilangan tartibda bajarish;

-oldin ishlatilgan shplintlar va shplintlanuvchi simlarni, elastikligini yukotgan prujina sifat shaybalarni, kirralari eyilgan yoki rezbasi shikastlangan shpilka va boltlarni, rezbasi chakilib kolgan yoki ikkitadan ortik uram yulib olingan detallarni, shikastlangan kistirmalarni ishlatmaslik;

- aloxida uzellarni yigish uchun avtomatlar va avtomat liniyalarni, moslamalarni kullagan xolda yigish ishlarini maksimal darajada mexanizatsiyalashtirish.


Dvigatelni yigishdan oldin silindrlar bloki uzak podshipniklarning kopkoklari, taksimlash valining vtulkalari, sovitish tizimining kranlari va moylash tizimining tikinlari Bilan butlanadi.Tsilindrlar blokini buruluvchi stendga, karter tekisligi yukoriga karab maxkamlanadi, uzak podshipniklarning kopkoklari echiladi, ichkuymalar, salnik va orka podshipnik kopkogining rezinali torets zichlagichlari urnatiladi, uzak podshipniklarning ichkuymalari moylanadi, maxovik, ilashma, shesternya va tirak shaybalar Bilan yigilgan tirsakli val uz joyiga urnatiladi, podshipniklar kopkogi kuyiladi va boltlar Bilan maxkamlanadi. Boltlarni yakuniy sirib tortishni dinamometrik kalit yordamida 110- 130 N.m.laxza bilin amalga oshiriladi. Bunda tirsakli valni aylantirib yuborish laxzasi 70 N.m.dan kata bulmasligi kerak.tirsakli valni UK buylab siljishidagi tirkish shchup Bilan tekshiriladi.Tirsakli val shesternyasi bilan tirak podshipnikning oldingi shaybasi orasidagi tirkish ulchanadi.U 0,075- 0,285 oraligida bulishi lozim.Tsilindrlar blokini stend yordamida old tomonini yukoriga karrab buriladi va shatun Bilan yigilgan porshen silindrga kiritiladi.Porshen xalkalarini sikish uchun maxsus moslama ishlatiladi (rasm-), sung shatun boltlariga pastki kapkoklar urnatiladi, dinamometrik kalit yordamida gaykalarini 100- 115 N.m. laxza Bilan sirib tortiladi va ular shplintlab kuyiladi.Uzak va shatun podshipniklarini sirib kotirilgandan keyin tirsakli valning engil aylanishi tekshiriladi. Aylantirib yuborish laxzasi 100 N.m. dan kata bulmasligi kerak.

Taksimlash valini shesternya va flanets yuilan yigilgan xolda bloka urnatiladi.Valni extiyotkorlik Bilan urnatish lozim,chunki uning kopkoklari podshipniklar vtulkasini shikastlab kuyishi mumkin.Shesternyalarni ilashishga kiritishda belglarni mos tushishini ta'minlash zarur.Shundan keyin taksimlash valini tirak flanetsini bloka boltlar yordamida maxkamlanadi,tirsakli valning uchiga moy kaytargich kiydiriladi, taksimlashshesternyalarining salnik va kistirma yigilgan kopkogini urnatiladi va uni boltlar yordamida maxkamlanadi



Rasm-1. Porshenni xalkalari bilan birga urnatadigan moslama. 1-tsilindr gilzasi, 2-moslama, 3-xalkalar va shatun bilan birga yigilgan porshen

Boltlarni bir tekisda 20 – 30 N.m. laxza bilan xochsimon tartibda ikki xarakatda tortib kuyiladi, taksimlovchi shesternyalar kopkogiga dvigatel tirsakli valining aylanishlar chastotasini cheklovchi kurilma datchigi urnatiladi va maxkamlanadi, tirsakli val shkivini shponkaga tugrilab, zichlab utkaziladi, tuxtatgich shayba kuyib, xropovikni burab kotiriladi, nasosning moysurgichi urnatiladi va maxkamlanadi, zichlovchi kistirma kuyib, moy karterini bolt bilankotirib kuyiladi, ilashmani ajratuvchi ayirni karterga joylab, boltlar yordamida maxkamlanadi. Ilashma karterining shchit va kopkogi urnatiladi xamda boltlar bilan kotiriladi, sung silindrlar blokini stendga burib yukoriga karatiladi



Rasm-2. Dvigatelni silindrlar kallagini kislarga ajratish va yigish stendi. 1-rama, 2-planka, 3-podshipnik, 4-tsapfa, 5-kolonka, 6-planka, 7-plita, 8-xalka, 9-tuxtatgich, 10-dasta, 11-taksimlash krani, 12-tortki, 13-pedal, 14-pnevmatik silindr, 15-pnevmonsilindr shtoki

Stendga yoki verstakka silindrlar kallagi urnatiladi, klapanlar uz joyiga kuyiladi va klapan mexanizmi yigiladi. Verstakda ishlaganda maxsus ajratgich kullaniladi. Shundan keyin silindrlar kallagining kistirmasi bloka kuyiladi, kallakni blok fiksatoriga urnatiladi, blokdagi uyalarga turtkich va shtangalar joylashtiriladi, koromislolar yigilgan uk, turtgich shtangasining uchini koromiso bilan biriktiriladi va koromiso ukining stoykalari maxkamlanadi. Ikkinchi silindr kallagi buyicha bajariladigan ishlar xam xudi shunday ketma- ketlikda bajariladi. Sung blok silindrlar kallagidagi ajralish tekisliklariga zichlash kistirmalar kuyiladi, yigilgan xoldagi kiritish kuvuryuli xam shpilkalarga urnatiladi va gaykalar yordamida maxkamlab kuyiladi, chikarish kuvuryuli xam shpilkalarga gaykalar vositasida maxkamlab kuyiladi, moy filtri, karterni shamollatish filtri bilan birgalikda moy kuyish kuvuri, moy nasosi, termostatli kiska kuvur, shamolparrak va tukish klapani yuritmasining tortkisi bilan birgalikda suv nasosi, yonilgi nasosi, karbyurator bilan xavo filtrini, yonilgini Mayin tozalash filtri, rul boshkarmasi

gidrokuchaytirgichining nasosi, kompressor, generator, starter, uzgich- taksimlagich, svechalar, elektr simlar urnatiladi.

Yigilgandan sung dvigatelni sinash stantsiyasiga yuboriladi, u erda chiniktiriladi va sinovdan utkaziladi.

Nazorat savollari:

- 1.Tirsakli valni maxovik bilan yigish kandy amalga oshiriladi
- 2.Yigilgan tirsakli val kandy balansirovka kilinadi
- 3.Tirsakli valni dvigatel silindrlar blokiga urnatishda uzak va shatun kopkoklarini tortishning axamiyati
- 4.Dvigatel kallagi boltlarini tortish tartibi va ketma- ketligi
- 5.dizkl dvigatelni yigish sxemasi
- 6.Dvigatelni yigishda ishlatiladigan jixozlar va moslamalarni urganish

Xisobot

- 1.Dvigatel xarakteristikasi
Modeli _____ turi _____
Tsilindrlar soni _____
- 2.Yigish jixozi xarakteristikasi
Kismlarga ajratish uchastkasi soni _____
Yigish pozitsiyalari soni _____
Yigish jixozlari turi _____
- 3.Dvigatelni yigish sxemasi

Dvigatelni yigish texnologik xaritasi

| №t`r | Bajariladigan ish mazmuni | Izox |
|-------------|----------------------------------|-------------|
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |

Bajardi: _____
(imzo) (f.i.o.)

Laboratoriya ishi №10

Ta'mirlashdan sung avtomobilni sinash

Ishning maksadi:Dvigatelni sinash texnologiyasi bilan tanishish.

Ishning mazmuni:Laboratoriya ishini bajarish jarayonida studentlar dvigatelni sinash texnologiyasi, va sinashda aniklanadigan parametrlar vaaniklangan nosozliklar xamda ularni bartaraf etish tartibi bilan tanishish.

Umumiy ma'lumot

Avtomobil nominal yuk ko'taruvchanligining 75 % miqdoridagi yukni ortib, 40-50 km/s dan katta bo'lmagan tezlikda, 30-50 km masofaga haydab ko'rib, sinovdan o'tkaziladi. Haydashdan oldin srvitish tizimiidagi suyuqlikning harorati kamida 60^0 S bo'lgunicha qizdiriladi.Qizdirilgan dvigatel starterda o't olish, salt yurishning kichik aylanishlarida barqaror ishlashi va drossel ochilganda aylanishlarni bir tekisda ortishi lozim.

Avtomobilni sinashda uning barcha agregatlari qanday ishlashi kuzatib boriladi.Qo'zg'alish paytida dvigatel tirsakli valining aylanishlar chastotasi keskin oshirib yubormasdan ishlashi kerak. Ilashma oson ishlashi va dvigatelning uzatmalar qutisi yetaklovchi validan to'liq uzib qo'yishi, avtomobilning o'z o'rnidan shovqinsiz hamda ravon qo'zg'alishini ta'minlashi lozim. Tezlash vaqtida ilashma shataksirashiga yo'l qo'yilmaydi.

Ilashma ajratilgan xolatda bir oz kutilgandan so'ng uzatmalar oson va shovqinsiz ulansa, demak ta'mirlash sifatli bajrilgan bo'ladi. Shesternyalarni o'z-o'zidan ilashmadan chiqib ketishiga yo'l qo'yilmaydi.

Avtomobil harakatlanayotgan paytda radiatoridagi suvning harorati 80^0 S dan, ulangan moy radiatoridagi moyning xarorati esa 100^0 S dan ortib ketmasligi kerak. Uzatmalar qutisida va orqa ko'prikda taqqillashlarsiz, bir xildagi shovqinlar kuzatilishi mumkin.Uzatmalar qutisidagi moyning harorati 70^0 S dan oshmasligi lozim. Kardan valining titrashi va taqqillashlariga yo'l qo'yilmaydi.

Rul mexanizmini ishlashi ham tekshiriladi. Menxanizm oson harakatlanishi, qadalib qolmasligi va ikkala tomonga to'liq burilishni ta'minlashi lozim.Bu paytda pokrishkalar bo'ylama rul tortqisiga va avtomobil ramasiga tegib ketmasligi kerak. Sinash davrida tormoz tizimi tekshiriladi.U tormoz pedaliga yoki qo'l tormoziga o'xistalik bilan kuch qo'yilganda bir tekis tormozlanishni ta'minlamog'i darkor.. To'liq tormozlashda pedal yoki richag oxirigacha bormasligi kerak. Avtomobilning tormozlanish yo'li 30 km/s tezlikda, qattiq qoplamali qupuq yo'lning gorizontal qismida 10 m ni tashkil etishi kerak. Qo'l tormozi esa avtomobilning qoplamali quruq yo'lda, 25 % dan kam bo'lmagan qiyalikda ushlab turishi lozim.

Avtomobil harakatlanayotgan paytda kabina eshiklarini, oynalarni, kapot ilgaklarini, platforma bortining qulflarini o'z-o'zidan ochilib ketishiga,kapot qanotlarini, shovqinso'ndirgichni va boshqa detallarni zirillashiga yo'l qo'yilmaydi.

. Dvigatel almashtirilganda avtomobilni sinash to'liq qaytariladi., uzatmalar qutisi yoki orqadagi ko'prik to'liq almashtirilganda esa avtomobilni haydab ko'rish masofasi 15 km ni, ortilgan yuk esa 75 % ni tashkil etadi.

Ishni bajarish tartibi:

Dastlab studentlar avtomobilni sinashni urganishdan oldin texnika xavfsizligi koidalari bilan tanishtiriladilar

Dvigatelni maxkamlash joylari, Detal va agregatlarning ulanishi, avtomobilning tozaligi, avtomobilni barcha talab etilgan elementlar bilan jixozlanganligi va boshkalar tekshiriladi.

Avtomobil dvigateli ishlab turganda stetaskop yordamida yoki eshitish orkali takkillashlar va titrashlar eshitilib kuriladi.

Moy bosimi va suv mikdori tekshirib kuriladi.

Avtomobil salanida joylashgan ulchov asboblarning ishlashi tekshirib kuriladi.

Avtomobilni tashki tomondan nazorat kilinadi

Shinalar bosimi va gildiraklar maxkamlanishi tekshiriladi

Nazorat savollari

- 1 Avtomobilni sinash ishlari mazmuni nimalardan iborat
2. Sinash paytida avtomobilga ortilgan yuk mikdori necha foiz bulishi lozim
3. Sinash vaktida tizimdagi moy bosimi kancha bulishi kerak
4. Sinash vaktida suv radiatoridagi suv xarorati kancha bulishi kerak

, Xisobot

1 Dvigatel xarakteristikasi

Modeli _____ Turi _____

Tsilindrlar soni _____ Porshen diametri va yuli _____

Nominal kuvvati _____ kVt

Maksimal ayl. Momenti _____ Kgsm

Aylanishlar chastotasi _____ min-1

Solishtirma yonilgi sarfi _____ 100 km/ l

Xulosa: _____

Bajardi : _____ gurux studenti _____

(imzo)

(f.i.o.)